

KOMIL XORAZMIY FAOLIYAT YURITGAN DAVR SIYOSIY HAYOTI

Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich

*Urganch davlat pedagogika instituti “Tarix va geografiya”
kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В ПЕРИОД ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАМИЛЯ ХОРЕЗМИ

Алланазаров Шохрухбек Фарходович

*Преподаватель кафедры «История и география»
Ургенчского государственного педагогического института,
самостоятельный исследователь*

THE POLITICAL LIFE OF THE PERIOD DURING WHICH KOMIL KHOREZMI WAS ACTIVE

Allanazarov Shokhrukhbek Farkhodovich

*Teacher of the Department of “History and Geography” of
Urganch State Pedagogical Institute, independent researcher*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonasining yetuk siyosatdoni, mohir tarjimon, zabardast shoir bo‘lgan, o‘zbek adabiyoti, musiqasi rivojiga beqiyos hissa qo‘sigan mashhur siymo - Komil Xorazmiy faoliyat yuritgan XIX asrning ikkinchi yarmidagi siyosiy hayoti yoritilgan va uning shu davrdagi o‘rnini tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Komil Xorazmiy, XIX asr, siyosiy hayot, adabiy muhit, Muhammad Rahimxon II, musiqa rivoji, mustamlakachilik davri.

Аннотация: В данной статье освещается политическая жизнь второй половины XIX века — периода, в который жил и творил выдающийся государственный деятель своего времени, талантливый переводчик, самобытный поэт и известная личность, внесшая неоценимый вклад в развитие узбекской литературы и музыки — Камил Хорезми. Также проводится анализ его роли в этом исторический период.

Ключевые слова: Камил Хорезми, XIX век, политическая жизнь, литературная среда, Мухаммад Рахимхан II, развитие музыки, колониальный период.

Annotation: This article highlights the political life of the second half of the 19th century, during which the famous figure Komil Khorezmi an outstanding statesman of his time, a skilled translator, and a powerful poet who made an invaluable contribution to the development of Uzbek literature and music was active. His role during this period is also analyzed.


Keywords: Komil Khorezmi, 19th century, political life, literary environment, Muhammad Rahimkhan II, development of music, colonial period.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ /

INTRODUCTION). Har bir davr o‘z kechmishiga, tarixiy silsilasiga ega. Davrlararo ma’lum bir umummushtaraklik hukm sursa ham, har bir zamon, fursatlarning o‘ziga xos, takrorlanmas, boshqa davrlarnikiga o‘xshamaydigan va qaytarilmas jihatlari bo‘ladi. XIX asr Vatanimiz tarixida, xususan, Xorazm hududida madaniy taraqqiyotning eng gurkiragan, ammo alg‘ov-dalg‘ovli davri, ko‘p

qarama-qarshiliklar silsilasida kechgan davr hisoblanadi. Ushbu davrning yetuk siyosatchisi, davlat va jamoat arbobi Komil Xorazmiy bo‘lib, uning faoliyat yuritgan davrida siyosiy hayotida birmuncha o‘zgarishlarga olib keldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA
METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И
МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND
METHODS).** Xorazm dunyo sivilizatsiyasi va



<https://orcid.org/0009-0004-8321-5687>

allanazarovshohruh@gmail.com

madaniyatiga beba ho hissa qo'shgan Sharq gavharidir. Bu ko'hna yurt jahonga dong'i ketgan ne-ne olim-u fozillar, sarkarda va sultonlar, aziz avliyolar, betakror shoir va hofizlar vatanidir [1]. Ushbu hududdan yetishib chiqqan davlat va jamoat arboblaridan biri Komil Xorazmiydir. Komil Xorazmiy 1825-1899-yillarda yashagan bo'lib, u XIX asrning ikkinchi yarmida Xivadagi adabiy harakatning davomchisi, buyuk san'atkor, musiqashunos, mohir xattot va tarjimon, davlat arbobi, ma'rifatparvar shoirlardan biri edi. Yoshlikda Komilni erkalab, Pahlavon laqabi bilan chaqirganlari uchun uning nomi keyinchalik Pahlavon Niyoz Muhammad shaklida mashhur bo'lib ketadi [2]. Komil Xorazmiyning doimiy faoliyati Muhammad Aminxon davridan (1845-1855-yillar) xon qo'shinida otboqarlik xizmatidan boshlanib, Muhammad Rahimxon II davrida devonbegi darajasigacha ko'tarilgan [3]. U Muhammad Rahimxonning otasi Sayid Muhammadxon zamonasida saroyda oddiy xattot bo'lib, keyin mirzaboshilik mansabiga ko'tarilgan, so'ngra esa devonbegi sifatida katta ijtimoiy-siyosiy, madaniy ishlarni amalga oshirdi [4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Pahlavon Niyoz Muhammad - Komil Xorazmiy Xiva xonligida 5 ta xon davrida faoliyat olib borgan: 1.Muhammad Aminxon (1845-1855); 2.Abdullaxon (1855-1856); 3.Qutlug'murodxon (1856-yil – 6 oy xonlik qilgan); 4.Sayid Muhammadxon (1856-1864); 5.Muhammad Rahimxon II (1864-1910) [5]. Komil Xorazmiyning doimiy uzluksiz faoliyati Xiva xoni qo'shinida otboqarlik xizmatidan boshlaganligini qayd qilish mumkin. Lekin bir ma'lumotni keltirib o'tish joizki, u madrasada o'qib yurgan kezlar, o'qishni tashlab, ma'lum muddat bobosi Xo'jash mahram savdo karvoniga qo'shilib, tijorat bilan shug'ullangan. Bu haqida Komil Avaz, Komil Xorazmiy to'g'risida yozgan kitobida, "otasi betobligi bois, oilasini boqish maqsadida 1841-yilda madrasa ta'limini tashlab, savdo karvonida tijoratchilik qilgan", - degan ma'lumotni keltirib o'tgan. 1847-yilda madrasa ta'limida o'qishni davom qildirgan [6]. Komil Xorazmiy faoliyatining eng gurkirab rivojlangan davri Muhammad Rahimxon II (Feruz) davriga to'g'ri keladi. Komil Xorazmiy Xiva xonligida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davrida (1873-yil) eng nufuzli devonbegi mansabigacha ko'tarilgan. Muhammad Rahimxon II ning Xorazm taxtiga kelishi xususida Muhammad Yusuf Bayoniy

shunday yozadi: "...hamma ittifoq bila turub, ko'runushxonaga kirib, Bobojon to'rani talab etib kelturdilar. Ul kun hijratning ming ikki yuz sakson birlanchisi muvofiqi sichqon yili va sunbulaning oxiri va rabius soniyning yigirma birlanchisi va panjshanba kuni erdi. Hamma yurt ulug'larining ittifoqlari bilan Bobojon to'ra, ya'ni Muhammad Rahim to'ra ibni Sayyid Muhammadxon jannatmakon xon bo'lub taxti davlatda o'lturdilar. Har taraf din muborakbod ovozi baland bo'la berdi. Jarchilar ko'chalarda "Davr-davri Muhammad Rahim Bahodir!" – deb munodo (chaqiriq, jar solish) ura berdilar" [7]. Bundan ko'rindiki, Muhammad Rahimxon II ning asl ismi Bobojon to'ra bo'lgan.

Muhammad Rahimxon soniy Feruz xuddi otasi Sayid Muhammadxon singari har haftaning ikki kuni saroyda shoirlar mushoirasi, kitobxonlik kechalari o'tkazib borishni o'ziga odat qilib oldi. U Ogahiy, Bayoniy, Komil, Mirzo kabi shoirlarga ergashib g'azallar mashq eta boshlaydi. Uning nozikta'b g'azallarini ko'rgan Komil xonga Feruz taxallusini taklif etadi. "Feruz" – "baxtli", "toleli", "g'olib" degan ma'nolarini anglatadi. ... Feruz o'z zamonasida ajabtovur musiqashunos va bastakor edi. U shoir va san'atkor Komil Xorazmiyning tashviqi bilan eng qadimi "Shoshmaqom" kuylarini to'liq o'rgandi va "Navo", "Segoh", "Dugoh" maqomlarig'a bog'lab kuylar ham yaratadi. Komil Xorazmiy bir she'rida Feruzning musiqa ilmiga munosabatini shunday ko'rsatadi:

Gar olsa ilgiga shoh tanbur,
Chekar ko'nglimdek o'tliq oh tanbur...
Qilur sayru maqomot ul jihatdin,
Erur Komilga xotirxoh tanbur [8].

Aynan Muhammad Rahimxonning adabiyotga, musiqa ilmiga bo'lgan qiziqlishi tufayli Komil Xorazmiyning unga "Feruz" taxallusini taklif etganligini ko'rishimiz mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Xevada o'tgan jami qirq to'qqiz xon ichida eng uzoq davron surish Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxon soniy Feruzga nasib etdi. U qirq yetti yil-u o'n besh kun taxtda o'tirish baxtiga musharraf bo'ldi. Chunki u o'z atrofigaadolat va haqiqat nuqtai nazaridan qarovchi amaldorlarni to'pladi. Avvalo doyi (tog'a)si dono Ibrohimxo'ja, shoir va mutarjim (tarjimon) Ogahiy, yetuk ijodkor, shoir va tarixchi Bayoniy, shoir va davlat arbobi Pahlavonniyoz mirzaboshi, uzoqni ko'ra biluvchi Ismoilxo'ja naqib, qozi Muhammad Latif oxun, jasur

va mard Matmurod devonbegi, uddaburon Rahmatullo yasavulboshi, Abdulla mahram va adolatpesha Shayxnazarboy kabi kishilar bilan birga ish yuritganligi tufayli mana shunday sharafga sazovor bo‘ldi [9]. Bundan ko‘rinadiki, Muhammad Rahimxon II mamlakatda madaniy taraqqiyotni yuksaltirishda maorif, fan, adabiyotga e’tibor berib, o‘z atrofiga eng munosib, bilimli kishilarni to‘plagan.

Manbalarning guvohlik berishicha, Feruz yirik shoир bo‘lishi bilan birga, kuchli musiqashunos ham edi. Shoир Komilning tashviqi bilan Xorazm shoshmaqomini mukammal o‘rganib va “Segoh”, “Dugoh” maqomlariga boylab kuylar yaratgan edi. Ogahiy o‘zining tarixiy asarlarida Muhammad Rahimxon Soniy davrida cho‘llardagi quruqliklarni qazish, vohani suv bilan ta’minlash ishlariga katta ahamiyat bergen [10]. Fuqaroparvar hukmdor bo‘lgan Feruz o‘z xalqining moddiy ahvolini yaxshilash yo‘lida jon kuydirgan. Adolatli shoh, zukko shoир, ma‘rifatparvar arbob, usta musiqashunos adabiy va musiqiy muhitning jonkuyar homiysi sifatida Muhammad Rahimxon soniy Xorazm tarixida muhim o‘rinni egallaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Komil Xorazmiy faoliyat yuritgan davr – XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Xorazm madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayotining taraqqiyotida Muhammad Rahimxoni soniy – Feruzning xizmatlari kattadir. Bu davrda xonlikda ulkan qurilishlar amalga oshirildi. Mamlakatda maorif, fanni yuksaltirish borasida rus-tuzem maktablari, qator madrasa va masjidlar qurildi. Davlatda ijtimoiy hayotni birmuncha yuksaltirish uchun esa, aholi foydalananadigan pochta, telegraf, kasalxona bunyod etildi. Savdo-sotiqni amalga oshirilishi uchun yetarli sharoit yaratildi. Saroy atrofida qirqdan ortiq shoир, yozuvchi, mutarjim, muarrix (tarixchi), xattot fan bilan mashg‘ul bo‘lib, yuzlab bayoz, devon, tarixiy va tarjima asarlar bunyodga keldi. Adabiyot va san’at taraqqiy etdi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Feruz xalqqa shuncha yaqin bo‘lganki, xatto, uning siymosi xalq latifalari, rivoyatlarida keng o‘rin tutadi. Xalq bu asarlarda Feruzni odil va dono podsho, adabiyot va san’at homiysi, qiyinchiliklarni har doim yenga oluvchi siymo sifatida tasvirlaydi. Muhammad Rahimxon har bir shaxsga vazifa tayin etganda,

birinchi navbatda, uning ijodiy qobiliyatini ham e’tiborga olgan. Iqtidorli kimsalarga g‘oyatda mehr bilan qaragan va muruvvatlar ko‘rsatgan. Xususan, Feruzxon Komil Xorazmiyni mashhur xattot va mohir siyosatchi sifatida ko‘rganligi shubhasizdir, fikrimcha.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xiva shahrida “Arda Xiva” xalqaro turizm markazining tantanali ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2025. – № 89 (8984). – B. 1.
2. Ўзбек педагогикаси антологияси: Икки жиддлик. Ж.1. / (Тузувчи муаллифлар: К.Хошимов, С.Очил; Тахрир ҳайъати: М.Хайруллаев ва бошқ.) - Т.: Ўқитувчи, 1995. - B.395.
3. Комил Аваз. Комил Хоразмий: Маърифийбадиий роман / -Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2015. - B.289.
4. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Тарихий-бадиий лавҳалар. (Сўзбоши муаллифи: Б.Назаров; Масъул муҳаррир Н.Жумаев). - Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – B.45.
5. Матниёзов М, Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. - Урганч, 2009. - B.265.
6. Комил Аваз. Комил Хоразмий: Маърифийбадиий роман / -Урганч: Хоразм нашриёти, 2015. - B.289.
7. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. -Тошкент: Камалак, 1991. - B.189.
8. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Тарихий-бадиий лавҳалар. (Сўзбоши муаллифи: Б.Назаров; Масъул муҳаррир Н.Жумаев). - Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – B.57, 86.
9. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати: Сайд Муҳаммад Раҳимхони Баҳодирхони соний - Феруз ҳақида тарихий бадиий лавҳалар / Д.Раҳим, Ш.Матрасул, Н.Жумахўжа. - Т.: Ўзбекистон, 1995. - B.12.
10. Masharipov O., Masharipov A. Xorazmnomasi. – Т.: 2020. – B. 299-303.